

UO‘K:331.526:312 (575.1)

INNOVATION RIVOJLANISH SHAROITIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGINI TA’MINLASH TO‘G‘RISIDAGI KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

Elmonov Bekmurod Ermat o‘g‘li – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
katta o‘qituvchi, ORCID:0000-0002-9444-458X, eebekmurodbe@gmail.com

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti, Toshkent sh, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada innovatsion iqtisodiyotda aholining mehnat bilan bandligini ta’minlash yo‘llarini aniqlash, mehnatga layoqatli yoshdagi aholidan samarali foydalanish, ish bilan bandlik darajasini oshirishga oid yo‘nalishdagi tadqiqotlar o‘rganilgan. Jumladan, demografik va texnologik o‘zgarishlar sharoitida mehnat sifatini oshirish hamda raqamli mehnat platformalarini rivojlantirish asosida ish bilan bandlikka ko‘maklashishga yo‘naltirilgan masalalarga ilmiy izlanishlarda alohida e’tibor qaratilgan. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida texnologik bosqich va iqlim o‘zgarishlariga moslashish, mehnat bozorining qutblanishi hamda mehnat bozorida besh turdagi avlod vakillarining mehnat qiymatidagi farqlarni hisobga olgan holda, aholini ish bilan samarali bandligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashga qaratilgan yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bandlik tarkibi, unumdorlik, demografiya, tarkibiy o‘zgarish, iqtisodiy o‘sish.

УДК:331.526:312 (575.1)

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ

Элмонов Бекмурод Эрмат угли - доктор философии по экономическим наукам (PhD),
старший преподаватель

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, г. Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются пути обеспечения занятости населения в условиях инновационной экономики, анализируется эффективное использование трудоспособного населения, а также исследуются направления, направленные на повышение уровня занятости. Особое внимание в научных исследованиях уделяется повышению качества труда в условиях демографических и технологических изменений, а также содействию занятости через развитие цифровых трудовых платформ. В условиях перехода к инновационной экономике разработаны подходы к определению приоритетных направлений обеспечения эффективной занятости населения с учетом адаптации к технологическим этапам и изменениям климата, поляризации рынка труда, а также различий в трудовых ценностях между представителями пяти поколений, участвующих в рынке труда.

Ключевые слова: структура занятости, производительность, демография, структурные изменения, экономический рост.

UDC: 331.526:312 (575.1)

CONCEPTUAL APPROACHES TO ENSURING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN THE CONTEXT OF INNOVATIVE DEVELOPMENT

Elmonov, Bekmurod Ermat ugli – Doctor of Philosophy in Economical Sciences (PhD),
Senior lecturer

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Tashkent city, Uzbekistan

Abstract. The article explores ways to ensure employment of the population in an innovative economy, examines the efficient use of the working-age population, and studies directions aimed at increasing the level of employment. In particular, scientific research has focused on improving labor quality under conditions of demographic and technological change, and on promoting employment through the development of digital labor platforms. In the context of transitioning to an innovative economy, approaches have been developed to define priority directions for ensuring effective

employment of the population, taking into account adaptation to technological stages and climate change, labor market polarization, as well as differences in labor values among representatives of five generational cohorts in the labor market.

Keywords: *employment structure, productivity, demography, structural change, economic growth.*

Kirish

Mamlakatimizning innovatsiyalar sohasidagi muvaffaqiyatini global innovatsiyalar indeksidagi oʻrni orqali baholash mumkin. 2025-yilda ushbu reytingda Oʻzbekiston 79-oʻrinni egalladi; 2022-yilda Oʻzbekiston «Barqaror rivojlanish uchun innovatsion sharhlar» dasturi doirasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi tomonidan mamlakatning innovatsion tizimiga ijobiy baho berildi. Shunday boʻlsada, bugungi kunda innovatsion iqtisodiyotga va iqlim oʻzgarishiga moslashish zaruriyati yuzaga kelmoqdaki, demografik dividend qaytishining ilk bosqichida mehnat resurslaridan samarali foydalanish inklyuziv iqtisodiy oʻsishni taʼminlaydi. Aholini ish bilan bandligi muhim makroiqtisodiy kategoriya hisoblanib, uning darajasi demografik xususiyatlarni hisobga olgan holda baholanadi va iqtisodiy oʻsishga erishishning intensiv va ekstensiv oʻsishi asosida erishilganligini ham oʻlchashda foydalaniladi. Intensiv iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda aholining taʼlim bilan qamrab olinganlik darajasini va mehnat resurslari sifatini oshirish muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda bu jarayon inson kapitali sifatini oshirishga transformatsiyalangan.


Iqtisodiy jarayonlar inson-tabiati-texnika-texnologiya-axborot-ijtimoiy vaziyat oʻrtasidagi progressiv bogʻliqliklar ortishi bandlikka bilvosita, bevosita va majburiy oʻz taʼsirini koʻrsatgan. Bunday bogʻliqliklarga moslashish, mehnat unumdorligi, samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirish, ishchi, ish beruvchi, jamiyat, davlat va atrof-muhit oʻrtasidagi barqarorlikni saqlab qolish maqsadida mehnat va bandlik munosabatlari boʻyicha nazariy qarashlar oʻzgarib borgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Xorijiy va mahalliy olimlarning aholini ish bilan bandlikni shakllantirish omillari, hamda ularni samarali bandligini takomillashtirish yuzasidan turli yondashuvlari mavjud (1-rasm). Jumladan, klassiklarning yondashuvlariga koʻra, iqtisodiyot va aholini ish bilan bandligining samarali tarkibi oʻrtacha foyda normasidagi tarmoqlararo tafovutlar orqali shakllanadi. XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan marjinalizm nazariyasida ish bilan bandlik tarkibi marjinal daromadlar va marjinal xarajatlar oʻrtasidagi nisbatdan kelib chiqib belgilanishi asoslab berilgan.

Neoklassik yondashuv vakillari (A.Marshall, A.Pigu, L.Valras, M.Veysman, I.Shumpeter) ish bilan bandlik tarkibidagi nomuvofiqliklarni hal qilish uchun ish haqi egiluvchan mexanizmlaridan, aniqrogʻi, ularni pasaytirish tomoniga oʻzgartirish orqali foydalanishni taklif qiladilar. J.Keynsning yondashuviga koʻra, ish bilan bandlik tarkibini davlat byudjet-soliq siyosati orqali ragʻbatlantirilgan samarali talab belgilaydi. Samarali talabni ragʻbatlantirish orqali davlat ishbilarmonlik faolligini oshiradi, yalpi ishlab chiqarish hajmining oʻsishi hamda ish bilan bandlik koʻlamining kengayishiga erishiladi, deb koʻrsatadi. Monetariستlarning fikricha, ish bilan bandlik tarkibi muomaladagi pulning miqdori takror ishlab chiqarishning barcha fazalari nisbatini tuzatishga va iqtisodiy oʻsishga bilvosita taʼsir koʻrsatishi orqali belgilanadi. Aholining ish bilan bandlik prekarizatsiyasiga bagʻishlangan nazariyalarda innovatsion iqtisodiyotni shakllanishi, iqtisodiyotning raqamlashuvida vaqtincha loyihaviy ishlarni, qisqa muddatli vazifalarni bajaruvchilar va mavsumiy ish bilan bandlar ortib boradi. Aholini ish bilan bandligini polarizatsiyasida esa, mehnat bozorida mehnatga boʻlgan talabning nomzod malakasiga koʻra qutblanishi roʻy beradi. Oʻzbekistonda bandlik va uning iqtisodiy rivojlanishdagi oʻrni, nazariy-amaliy ahamiyati boʻyicha keng tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, akademik K.X. Abduraxmanov, N.K. Zokirova, G.K. Abduraxmanovalarning zamonaviy sharoitda mehnat bozori va aholi bandligini taʼminlashning eng muhim koʻrsatkichlari tarkibida samarali va munosib mehnat muhim oʻrin egallashi boʻyicha nazariy qarashlari mavjud. Unga koʻra, ijtimoiy ishlab chiqarishning yangi turi va unga immanent boʻlgan mehnatning yangi sifatini (ijodiy, mahsuldor, informativ-intensiv, demokratik, qulay) shakllanishi bilan bogʻlangan. Bu ishchini iqtisodiy tizimning barcha darajalarida mahsulot, texnologik, boshqaruv, tashkiliy, ijtimoiy

innovatsiyalarga va tegishli qadriyatlar va mehnat xatti-harakatlarining motivlariga ega bo'lgan yangi turdagi xodimga aylantirgan. Innovatsion ish o'rinlari ish bilan bandlikning samarali va munosib shakli sifatida mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlashda alohida o'rin tutishi bo'yicha ilmiy xulosa bergan.



1-rasm. Aholi bandligi bo'yicha nazariyalarning tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha guruhlanishi
[1], [2], [3], [4], [5], [6]

G.K. Abdurahmonovanning fikricha, aholining munosib ish bilan bandligi o'z ichiga birinchidan, xalqaro mehnat standartlari, fundamental tamoyillar va ish joyidagi huquqlarni, ikkinchidan, ish bilan bandlikka ko'maklashishni, uchinchidan, ijtimoiy himoyani, to'rtinchidan, tripartizm va ijtimoiy dialogni ta'minlashga qaratilgan munosib mehnat strategiyasining to'rt ustuvor yo'nalishini qamrab oluvchi quyidagi 10 ta o'lchov elementlarini o'zaro bog'liqligini ta'minlash asosida yuzaga keladigan bandlikni nazarda tutadi. Bunga ish bilan bandlik imkoniyatlari; mos daromad va samarali bandlik; munosib ish vaqti; ish, oila va shaxsiy hayotni o'zaro bog'langanlik; taqiqlangan mehnat; mehnat xavfsizligi va barqarorligi; ish bilan ta'minlash kafolati va imkoniyatining tengligi; xavfsiz mehnat sharoiti; ijtimoiy himoya; ijtimoiy dialog va ish beruvchilar va ishchilarning huquqlarining mavjudligi kiradi [7].

Z.A. Tolametovanning ilmiy qarashiga ko'ra, mehnatda bandlik jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda, iqtisodiy mehnat unumdorligi va turmush darajasini oshirishda asosiy o'ringa ega. Aholining ish bilan bandligi kasbiy mahoratni oshirishda, mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. B.E.Tagayev esa, iqtisodiy birliklarni ro'yxatga olish va ish bilan norasmiy bandligini rasmiylashtirish munosib va samarali ish bilan bandlik ta'minlashga xizmat qiladi- deb, qaraydi.

Bizning fikrimizcha, aholining ish bilan bandligi qonunchilikda taqiqlanmagan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan hatti-harakatidir. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida aholini ish bilan samarli bandligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda ko'p konturli omillarni hisobga olishni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda induksiya, deduksiya, miqdoriy va sifatiy tahlil, taqqoslama va statistik tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Aholining ish bilan bandligi va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish o'rtasidagi bog'liqliklar iqtisodiy va ijtimoiy fanlar kesimida keng o'rganilmoqda. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsiyalarni rag'batlantirish yo'nalishlarida faol islohotlar olib bormoqda.

Xalqaro tashkilotlarda, jumladan Jahon Banki, XVF, IHRTlar turli mamlakatlar doirasida ish bilan bandlik va innovatsion iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlikni, hududlarda innovatsion klasterlarning mehnat bozoriga ta'sirini urganmoqda. Innovatsiya va bandlik o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha: Deyvid Otters va Djoel Lengerlar aholini ish bilan bandligi qonuniyatlarining o'zgarishi, innovatsiyalarni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga ta'sirini o'rgangan [8]. Daria Ciriaci, Pietro Moncada-Paterno-Castello va Piter Voigtlar innovatsiya yangi ish o'rinlarini yaratadi deb hisoblashadi [9]. Innovatsiya va ish bilan bandlikni rag'batlantirish bo'yicha samarali siyosat va dasturlarni ishlab chiqish, jumladan innovatsiyalar va yangi ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantirishda oliy ta'limning roli bo'yicha Barro Robert va Jong-Wha Lee lar tadqiqot olib borgan [10]. Innovatsiyalar ijtimoiy shart-sharoitlarni yaxshilash va barqaror rivojlanishga qaratilgan bo'lishi lozim[11]. Mamlakatda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida mehnat va ish bilan bandlik munosabatlari bo'yicha keng ko'lamli tadqiqot olib borilgan bo'lsada, iqtisodiyotning hozirgi bosqichiga mos iqlim o'zgarishining bandlikning tarmoq tarkibiga ta'sirini baholash, to'rtinchi sanoat inqilobi, sanoatni robotlashtirish sharoitida ish bilan bandlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini besh avlod vakillarining xulq-atvorlarini hisobga olgan holda belgilash lozim deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, texnologik o'zgarishlar bilan samarali bandlikni ta'minlash tarkibini takomillashtirishga bir tomonlama yondashib bo'lmaydi, uning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatlarini unutmazlik kerak. Aynan bozor munosabatlarining ish bilan bandlik sohasiga kirib borishi tufayli ham ish vaqtini tejash, mehnat samaradorligi, samarali bandlikni rivojlantirish uchun texnologik o'zgarishlar amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha, global ishlab chiqarish zanjiriga qo'shilish, ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish, raqamlashtirish, iqlim o'zgarishiga moslashtirish, ish joylari diversitii va inklyuziyasini ta'minlash asosida innovatsion ish o'rinlarini yaratish tarmoqlarda ish bilan bandlik tarkibini o'zgartiradi hamda munosib va samarali bandlik darajasini miqdor va sifat darajasini oshiradi.


Aholini ish bilan bandlik munosabatlarining rivojlanish bosqichlarida korxona va tashkilotlarida ishchiga "ishlab chiqarish vositasi" deb qarashdan inson omili yondashuviga va hozirda esa, noyob resursi sifatida qaralmoqda (2-rasm).

Inson resurslarining rivojlanish darajasi oshib borishi bilan mehnat sifati oshib texnik-texnologik rivojlanish ish vaqtlarini kamaytiradi. Ijodiy, analitik fikrlashlarni o'z ichiga olgan aqliy (abstrakt) mehnatning ulushi ortib borgan.

O'zbekistonda aholini ish bilan bandligini tarkibini takomillashtirishga to'rtinchi sanoat revolyutsiyasi va yashil iqtisodiyotga xos jahon bozorida raqobatbardosh, yuqori qo'shilgan qiymatli va "quyi va o'rta mahsulot" eksporti tuzog'iga [12] tushmagan mahsulotlar hamda xizmat ko'rsatish sohalarida, yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlardagi ish bilan bandlikning ulushini oshirish orqali erishish mumkin. Mehnat bozorini muvofiqlashtirish uchun onlayn mehnat platformalari asosida bozor mexanizmini qo'llash, mehnat resurslarini kasbiy va shaxsiy rivojlantirish, innovatsion diffuziya tezligini oshirish zarur.

O'zbekiston Respublikasida ish bilan bandlik tarkibiga 16 yoshdan 60 yoshgacha erkaklar, 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar va undan katta yoshdagi jismoniy hamda ruhan sog'lom aholi

guruhi kiradi, ular quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1) yollanib ish bajaruvchi va buning uchun to'liq yoki to'liq bo'lmagan ish vaqti sharti asosida haq oladiganlar, daromad keltiruvchi boshqa ish bilan shug'ullanganlar; 2) turli sabablarga ko'ra (kasallik, ta'til, xizmat safari, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va h.k.) vaqtincha ishda bo'lmaganlar; 3) oilaviy korxonada haq olmasdan ish bajarganlar.



2-rasm. XVIII-XX asrlarda bandlik evolyutsiyasi [13]

Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) ta'rifiga ko'ra, "ish bilan band bo'lganlarga" quyidagi shaxslar kiritiladi [14]:

I. Yollanish bo'yicha ish bilan bandlar: 1) ishlovchilar – hisobot davri mobaynida ish haqi evaziga ma'lum bir ish bajarganlar; 2) ish o'rniga ega bo'lib, hisobot davrida vaqtincha ishlamayotganlar, lekin rasman o'z ish o'rinlarini saqlab qolganlar.


II. O'z korxonasida ish bilan bandlar: 1) ishlayotgan shaxslar, ular hisobot davrida daromad olish uchun ma'lum bir ish bilan shug'ullanganlar; 2) korxonaga ega bo'lib, hisobot davrida biron sababga ko'ra ishlamayotganlar.

Ish bilan bandlikning o'zi 2 guruhga bo'linadi: 1) an'anaviy ish bilan bandlik, ya'ni to'la ish haftasida doimiy ish bilan bandlar; 2) noan'anaviy (egiluvchan) ish bilan bandlik. Aholining ish bilan bandlik turlarini klassifikatsiyalashda ish bilan bandlikning norasmiyligi toifasini ham kiritishni talab etadi.

2010-2024 yillarda YAIMning o'rtacha o'sish sur'ati 106,4 foizni, bu yillar oralig'ida mehnat resurslarining eng yuqori miqdori 20085,2 ming kishi, eng kam miqdori 16726,0 ming kishini tashkil etgan. O'rtacha mehnat resurslarining soni 18565,6 ming kishi bo'lgan. Mehnat resurslarining iqtisodiyotda band bo'lgan qismi 2024 yilda 14261,9 ming kishi (71,0%)ni tashkil etdi yoki 2010-2024 yillarda iqtisodiy faollik darajasi o'rtacha 72,4 foizni tashkil etib, 2,2 foizga oshgan. Bu o'z navbatida bandlik darajasini 1,1 foizga oshirgan (3-rasm) [15].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va maishiy sohani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyot

mehnat resurslarining yangi ish o‘rinlari va kasb-hunarlariga moslashishi natijasida yuzaga keluvchi ikki xil parallel rivojlanish bilan birga shakllanmoqda.



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasi YIM, investitsiya, ishsizlik va bandlik darajasi o‘shirish sur‘atlarining o‘zgarishi

Dastlab, bu turdagi ishlar to‘liq avtomatlashtiriladi yoki umuman bu mehnat turlarini amalga oshirishga talab bo‘lmay qoladi. Ikkinchidan, demografik o‘zgaruvchilar natijasida yangi texnologiyalar, vazifalar va ish bilan bandlik turlarini, shuningdek, yangi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohaslarini joriy etish kengayadi. Biroq, keksa ishchi kuchi malakasini oshirish, ularni turli kurslarga qatnashtirish va bunday jarayonga moslashuvi mehnat bozorida ma‘lum o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Iqtisodiy islohotlar jarayonining hozirgi bosqichida ishsizlik darajasini pasaytirishning asosiy strategiyalaridan biri xususiy sektorni jadal rivojlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali mehnat bozori muvozanatini ta‘minlashdan iborat. Tahlillar natijasiga ko‘ra mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar jadallik bilan o‘zgarib bormoqda. Bunda aholining mehnatda bandligi va uning daromad topishga bo‘lgan xulq-atvori keskin o‘zgarib, mehnat bozorining talab va taklif nisbati va uning tebranishlariga ta‘sir etuvchi omillar kutilayotgan doimiy daromad va qo‘shimcha daromadga bo‘lgan ehtiyojga tobora ko‘proq bog‘liq bo‘lib bormoqda. Mehnat resurslarining asosiy ish joyidagi daromadining manbai ish haqi ekanligi bilan bir qatorda qo‘shimcha daromad topish yo‘lida turli virtual xizmat ko‘rsatish sohaslari, elektron moliya operatsiyalaridagi faolligi oshib bormoqda. Xususan, bunday faoliyatni bitkoin, kriptovalyuta savdosi, elektron onlayn cho‘ntak orqali oldi-sotdini amalga oshirish orqali tushumlarni shakllantirish kabilarning kirib kelganligida ko‘rinadi.

Innovatsion iqtisodiyotning paydo bo‘lishi sharoitida iqtisodiyotning bandlik tuzilmasi o‘zgarib bormoqda va zamonaviy mehnat bozori evolyutsiyasida texnologik taraqqiyot, globallashtirish jarayonlari, demografik o‘zgarishlar, ekologik omillar, urbanizatsiyalashuv va aholining virtual biznesdan tushadigan daromadlari, daromadlarning taqsimlanishidagi farqlarning ta‘siri ortib bormoqda.

O‘zbekistonda mehnat resurslarining ish bilan bandligining yangi shakl va usullari kengaymoqda, jumladan egiluvchan bandlik. Egiluvchan ish bilan bandlik mehnat bozorining tarkibiy qismi bo‘lib, ma‘lum elementlarni o‘z ichiga oladi: funksional egiluvchanlik; mehnatga haq to‘lashning egiluvchan tizimlari; masofaviy egiluvchanlik.

Xulosa

Innovatsion rivojlanish sharoitida ish bilan bandlik kasbiy mahoratni oshirishda mamlakat barqarorligini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega. Iqtisodiy tizimda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini batafsil tahlil qilish uning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatish zarur. Resurslardan

samarali foydalanish jamiyatning moddiy ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, turmush darajasi va sifatini ham oshiradi.

Ish bilan samarali bandlikni ta'minlash an'anaviy ravishda yuqori ijtimoiy va iqtisodiy naf keltiradi. Ma'lumki bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi iqtisodiy tizimga o'tish davrida "samarali ish bilan ta'minlash" konsepsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqishni talab etadi. Qoida tariqasida, o'zgaruvchan iqtisodiyot sharoitida samarali bandlik yuzaga kelmaydi.

Innovatsion rivojlanish sharoitida aholi ish bilan bandligini ta'minlash to'g'risidagi konseptual yondashuvlar bo'yicha olib borilgan yuqoridagi tadqiqotlar tahlili natijalaridan kelib chiqib quyidagilarni amalga oshirish lozim:

Innovatsion rivojlanish sharoitlarida mehnat unumdorligini muttasil oshirib borish, birinchi navbatda, xodimlarning zamonaviy bilim darajasi va kreativligiga bog'liq. Tushunish, ko'nikma va samaradorlik, kar'yera rivojlanishini o'rganish, amaliyotga egalik, nou-xaularni bilish darajasi, umumiy ko'nikmalar va hissiy intellektga ega ekanligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va o'zini o'zi hurmat qilishi kabilar qamrovi ishga yollanuvchiga qo'yiladigan talablarni tarkibida oshirilishi;

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida aholi bandligini ta'minlashda birlamchi sektorda bandlik salmog'ini oshirish maqsadida sanoat tarmoqlarini yanada kengaytirish, innovatsion yangiliklarni amaliyotga joriy etish, ulardan samarali foydalanish;

xizmat ko'rsatish sohalarida bandlikni, ayniqsa shahar joylarida onlayn platformalarda, moliyaviy treyderlik, shaxsiy trenerlik faoliyatlarida bandlik darajasini oshirish, ijtimoiy himoyasiz ish bilan bandlik va xavfli mehnatda bandlik salmog'ini kamaytirishda 4-sanoat revolyutsiyasi yutuqlaridan foydalanish, samarasiz ish bilan bandlarni samarali ish bilan bandlikka o'tkazish zarur.

Adabiyotlar

- [1] Sey J.B. Siyosiy iqtisod risolasi. 1803 y. – 387 b.;
- [2] Smit A. Xalqlar boyliklarining mohiyati va sabablarini tadqiq etish. 1776 y.;
- [3] Shumpeter Y. Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi. 1982 y.;
- [4] Samuelson P., Nordxauz U. Ekonomika. M.: 1997.s.784.;
- [5] Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – T.: O'qituvchi, 2018. – 678 b.;
- [6] Mirzakarimova M.M. Ekonomicheskiy sikl: strukturnyye izmeneniya i voprosy zanyatosti. – T.: Fan, 2010. – 215 s.
- [7] Abdurahmonova G.K. Kichik biznesda aholini munosib mehnat tamoyillari asosida ish bilan ta'minlashni takomillashtirish. Dis. ... i.f.d. – T., 2016.
- [8] https://www.researchgate.net/publication/342211676_Izmerenie_vliania_innovaciy_na_zanatost_v_stranah_BRIKS. Estimating the effects of innovation on employment in BRICS countries a dynamic panel analysis
- [9] Daria Ciriaci, Pietro Moncada-Paterno-Castello. Innovation and job creation: A sustainable relation? 2013 <https://www.researchgate.net/publication/308890145>
- [10] Barro, Robert at el, "Education and Economic Growth", Annals of Economics and Finance, 2013, Vol. 14(2), pp. 301
- [11] Mike Dieterich. Sustainable development as a driver for innovation and employment. International Journal of Innovation and Sustainable Development. 2018. Vol. 12, No. 1-2
- [12] Jesus Felipe, Utsav Kumar, Arnelyn Abdon. "Howrich Countries become rich and why poor countries remainpoor: it's the economic structure...". Asian Dvelopment Bank, Mania. Philippiines. 2010
- [13] Demchenko Ye.S. K voprosu o razvitiy fabrichnogo zakonodatelstva v svyazi s ispolzovaniyem detsk truda v Anglii pervoy poloviny XIX veka / Ye.S. Demchenko // Pravovaya kultura. – 2012. – № 2. – S. 116–122.
- [14] ILO. (2013a). Resolution concerning statistics of work, employment and labour underutilization. Adopted by the 19th International Conference of Labour Statisticians, Geneva, 2–11 October 2013. Retrieved from https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/--stat/documents/normativeinstrument/wcms_230304.pdf
- [15] <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>